

O'ZBEK VA ARAB TILLARI TIZIMIDAGI MADANIY-LINGVISTIK INTEGRATSIYA VA SEMANTIK ASPEKTLAR

Abdumanofova Marjona Sadriddin qizi
O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti
abdumannopovam265@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek va arab tillaridagi madaniy hamda lingvistik aloqalar, xususan, leksik qatlamdagi o'xshashliklar va farqlar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ikki xalqning muloqot odobi hamda diniy-madaniy tushunchalarning tilga ko'chishi aniq misollar yordamida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Lingvokulturologiya, leksikologiya, muloqot odobi, o'zlashma so'zlar, frazeologiya, lingvistika, neologizm, struktura, ta'lim.

O'zbek va arab xalqlari o'rtasidagi aloqalar ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, bu jarayon nafaqat iqtisodiy va siyosiy, balki chuqur lingvistik va madaniy ildizlarga ham egadir. Islom sivilizatsiyasining kirib kelishi natijasida o'zbek tilining lug'at tarkibi arabcha so'zlar va iboralar bilan boyidi. Bugungi kunda zamonaviy o'zbek adabiy tilining deyarli 30-40 foizini bevosita yoki bilvosita arab tilidan o'zlashgan qatlam tashkil etadi. Ushbu maqolaning maqsadi mazkur ikki tilning madaniyatini qiyosiy tahlil qilishdir.

O'zbek tili leksikasidagi arabcha o'zlashmalar shunchaki so'z o'zgarishi emas, balki ma'lum bir madaniy va diniy qadriyatning ko'rinishidir. Masalan, ilm-fan, ta'lim va huquqqa oid atamalarning deyarli barchasi arab tilidan kirib kelgan: kitob, dars, ilm, maktab, muallim.

O'zbek va arab tillari o'rtasidagi lisoniy aloqalarni o'rganishda so'zlarning ma'no ko'chishi (semantik transformatsiya) hodisasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ko'plab arabcha o'zlashmalar o'zbek tili muhitiga kirib kelgach, o'zining birlamchi lug'aviy ma'nosidan uzoqlashib, yangi tushunchalarni ifodalay boshlagan. Xususan, "siyosat" so'zi arab tilida aslida o'tni o'rgatish va jilovlash (tarbiya qilish) ma'nosini anglatgan bo'lsa, zamonaviy o'zbek tilida u faqat davlatni boshqarish va ijtimoiy-siyosiy munosabatlar kabi keng ko'lamlil tushunchani anglatadi. Ba'zi so'zlar arab tilida tor ma'noda ishlatilsa, o'zbek tilida kengroq yoki ko'chma ma'no kasb etishi mumkin. Masalan, arab tilidagi "Majlis" (مجلس) so'zi "o'tiradigan joy" ma'nosini anglatga, o'zbek tilida "yig'ilish", "rasmii anjuman" ma'nosida qo'llaniladi. Bundan tashqari, ba'zi so'zlarning o'zbek tilidagi ma'nosi o'z asl ildizidan butunlay boshqa sohaga ko'chgan. Masalan, arabcha "tayyor" (طيار) so'zi "uchuvchi" degan kasbni anglatga-da, o'zbek tilida u "shay bo'lish", "bitganlik" holatini ifodalovchi sifatga aylangan. Demak, arabcha so'zlar o'zbek tili leksikasiga shunchaki ko'chib o'tmagan, balki milliy tafakkur va madaniy ehtiyojlarimiz asosida qayta ishlanib, o'ziga xos semantik o'zgargan. Bu esa ikki tilning nafaqat yaqinligini, balki har birining mustaqil lisoniy taraqqiyot yo'liga ega ekanligini isbotlaydi.

Muloqot odobi va diniy-madaniy bog'liqliklar o'zbek va arab tillarini bir-biriga yaqinlashtirib turadigan asosiy ko'prikdir. Bu ikki xalqning muloqot odobida o'xshash jihatlar juda ko'p bo'lib, bunga eng yorqin misol salomlashish odobidir. Arab tilidagi "السلام عليكم" (Sizga tinchlik bo'lsin) iborasi o'zbek madaniyatining ajralmas qismiga aylangan. Biroq, lingvokulturologik jihatdan qaraganda, o'zbek tilida ushbu ibora

yanada kengaygan va "Assalomu alaykum va rahmatullohi va barokatuh" shaklida to'liq va qisqartirilgan shakllarda qo'llaniladi.

O'zbek va arab xalqlari o'rtasidagi tarixiy hamda diniy yaqinlik ushbu ikki tilning ma'naviy-falsafiy qatlamida ham chuqur iz qoldirgan. Xususan, o'zbek madaniyatidagi "duo", "niyat", "sabr" kabi tushunchalar bevosita arab tilidagi fundamentga tayanadi. Misol uchun arab tilidagi "Sabr" (صبر) tushunchasi o'zbek tilida nafaqat chidamlilikni, balki ma'naviy metinlikni ham anglatadi. Ikkala tilda ham "Sabr-tagi sariq oltin" (الصبر مفتاح الفرج - Sabr-najot kalitidir) kabi maqollar mavjud bo'lib, ular bir xil konseptual ma'noga ega.

O'zbek va arab madaniyatida ayolning jamiyatdagi va oiladagi o'rni til orqali namoyon bo'ladi. Har ikki xalqda ham go'dakni uxlatishda aytiladigan qo'shiqlar nafaqat tinchlantirish, balki kelajakdagi niyatlarni ifodalash vositasidir. O'zbek madaniyatida: "Alla" so'zi "Alloh" so'zidan kelib chiqqan degan qarashlar mavjud. O'zbek allalarida ko'proq obrazli o'xshatishlar ("Gulim", "Rayhonim", "Polvonim") va bola ulg'ayganda yurtiga xizmat qilishi kabi ijtimoiy niyatlar ustunlik qiladi. Arab madaniyatida: Arablarda bu janr "Al-Hudaa" (الهدية) deb ataladi. Arab onalari o'z allalarida ko'proq duoga e'tibor berishadi. Masalan, "Bismilloh deyman, senga panoh so'rayman" kabi diniy elementlar qo'shiq matnining markazida turadi. Demak, ikkala madaniyatda ham "Alla" aytish jarayoni bolaga til o'rgatishning birinchi bosqichi hisoblanadi. O'zbek allasidagi ohangdorlik va arab allasidagi ritm o'zaro yaqinlikka ega.

Motam va ta'ziya bildirish jarayoni har ikki tilda ham o'ziga xos turg'un birikmalar (frazologizmlar) orqali ifodalanadi. O'zbek tilidagi ta'ziya bildirishda qo'llaniladigan deyarli barcha iboralar arabcha negizga ega: vafot, marhum, janoza, fotiha, duo, sabr, jannat. Arab tilida ta'ziya bildirilganda asosan "A'zomallohu ajrok" (أعظم الله أجرك) – "Alloh ajringizni ulug' qilsin" iborasi aytiladi. O'zbek tilida ham bu ibora diniy qatlamda mavjud, ammo xalqchil tilda "Alloh rahmat qilsin", "Joyi jannatda bo'lsin" kabi tilaklar ustun. O'zaro farqlarga kelsak, arablarda ta'ziya odatda 3 kun davom etadi va undan keyin hayot o'z oqimiga qaytishi lozimligi ta'kidlanadi (Islomiy qoida bo'yicha). O'zbeklarda esa ta'ziya marosimlari ko'proq davomli bo'lib, "yigirma", "qirq", "yil" kabi mahalliy an'analar bilan qorishib ketgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov B. (2023). Islom madaniyatining o'zbek tiliga lisoniy ta'siri. Tilshunoslik Tadqiqotlari, Vol. 10, No. 1, pp. 13-27.
2. Hojiyev J. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zME, 2002.
3. Saidov M. (2024). Arabcha so'zlarning o'zbek tilidagi uslubiy roli. Madaniyat va til.